



AIFU

XITOY “面子” MADANIYATIDA “面子” EGALARI

Nodira G'ayrat qizi Norova

Talaba

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti

Toshkent, O'zbekiston

E-mail: nodira.norova@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu ish xitoy jamiyati “面子” ning egalari va ularning xususiyatlarini yoritib beradi.

Kalit so'zlar: “面子”, xitoy jamiyati, “面子” ning egalari

НОСИТЕЛИ «面子» В КИТАЙСКОЙ КУЛЬТУРЕ «面子»

Аннотация: В данной работе исследуются носители «面子» и их особенности.

262

Ключевые слова: «面子», китайское общество, носители «面子»

AGENTS OF “面子” IN THE CHINESE “面子” CULTURE

Annotation: The given work investigates the agents of “面子” and their features.

Key words: “面子”, Chinese society, agents of “面子”

“面子” (yuz) madaniyati xitoy madaniyatining muhim qismi bo'lib, xitoyliklar hayotidaahamiyatli rol o'ynaydi. Tadqiqotchi filolog I. G. Nagibina ta'kidlashicha, “yuz” Xitoya eng muhim madaniy aloqa vektori hisoblanadi [1; 104-105]. Bu yerda “yuz” belgilar bilan ifodalanib, uning birlashtiruvchi semantik o'zagi “ijtimoiy maqom”, “shaxsning ijtimoiy xulq-atvor me'yorlariga muvofiqligi va bu muvofiqlikni ko'rsatadigan tashqi jihatdir” [1; 105]. Van Linning fikriga ko'ra, xitoyliklar o'z “yuzi” ga katta ahamiyat berib, “yuzni saqlash, yuzni tiklash, yuz berish” kabi harakatlarni har kungi hayotda muntazam bajarishadi [4; 12]. “Yuz” ning shakli va holati odamlarning psixologik faoliyatidagi o'zaro farqlari tufayli ko'pincha turli holatda shakllanadi. “Yuz” egasining har xilligiga ko'ra “yuz” odatda shaxs “yuzi”, kollektiv “yuzi” va davlat “yuzi” kabi uch turga bo'linadi [3; 60]:

1. **Shaxs “yuzi”.** Shaxs jamiyatning hujayrasi va eng asosiy ijtimoiy birlikdir. Shaxs “yuzi” turli shaklliligi va katta qamrovliligi bilan mashhur bo'lib, “yuz” madaniyatida eng katta joyni egallaydi. Qo'llanilish sohasida shaxsning doirasi jamiyatning barcha darajalarini qamrab oladi, davlat rahbarlaridan tortib oddiy odamlargacha. Shaxs “yuzi” mamlakat prezidentining, amaldorlarning, rahbar kadrlarning, oddiy odamlarning, hatto jinoyatchilarning yuzi bo'lishi mumkin.

Ishlatilish vaqtinuqtai nazaridan, shaxsning o'sishi dinamik jarayon bo'lganligi sababli, turli bosqichlarda olingen tashqi baholashlar har xil bo'ladi. Shunga e'tibor berish kerakki, shaxs "yuzi"ni saqlash yo'li asosan o'z-o'zini baholash va tashqi baholashning yig'indisining natijasidir. Bir tomondan, shaxs "yuzi" o'zining ijtimoiy tasvirini ehtiyotkorlik bilan shakllantirishdan kelib chiqadi. "Boshqalar nazaridagi men" "yuz"ning haqiqiy tasvirlanishidir. "Yuz" boshqalarga ko'rsatiladi. Yaxshi ijtimoiy tasvirga ega bo'lish va "yuz"ga nisbatan ijobiy bahoga erishish odamlar intilayotgan yo'nalişdir. Boshqa tomondan, shaxs "yuzi" boshqa odamlarning baholashlariga faol javoblardan kelib chiqadi. "Yuz" dagi nuqsonlarni aniqlash uchun shaxsiy baholashning o'zi yetmaydi, boshqalarning fikrlari ham kerakdir. Boshqalarning baholashlariga faol javob berish ham odamlar uchun o'zlarining go'zal tasvirini shakllantirish uchun muqarrar tanlovdir. Ammo, kundalik hayotda shaxs "yuz"ning "qo'g'irchog'"iga aylanib qolib, ko'pincha har xil niqoblar va "ajoyib" his-tuyg'ular bosimi ostida qolib ketishi mumkin.

Shaxsiy tasvirni shakllantirishda "yuz" ga bo'lgan psixologik ehtiyoj shaxsning xatti-harakatlari bilan chambarchas bog'liq. Agar u faqat "yuzni yaxshi ko'rsa", jamoatchilikning ma'qullashi va ijobiy fikrini qozonish uchun insonlar ma'naviy normalarga to'g'ri kelmaydigan ishlarni qilib, xohishiga zid bo'lgan natijaga erishishi mumkin.

Xitoy kanali CCTV yangiliklari fosh etgan "blogger ayol Gugong saroyida tunab, Ching dinastiyasi buyuk validanining to'shagida jonli efirga chiqishi" hodisasi bunga odatiy misoldir [5]. 2017-yil 1-may kuni bir blogger ayol Gugong saroyida kunduzi aylanib yurib, ma'lum bir jonli efir platformasi yordamida tomoshabinlarga bu sayrini translyatsiya qiladi. Tomoshabinlar bunga juda qizg'in qiziqish bildirib, bloggerni kechqurun saroyda qolib jonli efir o'tkazishga undashadi. Shunday qilib, blogger Gugongda tunda Buyuk validanining to'shagini jonli efirda namoyon qiladi. Bu hodisa internetda ko'plab bahs-munozaralarga sabab bo'ldi. Keyin aniqlanishicha, blogger kechasi soat 5 da Gugongni tark etib, qadimiy binoli bor rasmga tushish joyiga borib ushbu videoni olgan. "Yuzni yaxshi ko'rgani" uchun tomoshabinlar qiziqishini uyg'otib, xohlagan hurmat va e'tiboriga erishdi, ammo ommaviy ravishda qonunbuzorlikni amalga oshirdi. Garchi blogger keyinchalik o'z xatosini anglagan bo'lsa-da, "yuzni yaxshi ko'rish"ning olib kelgan salbiy ta'siri shu hodisada yorqin namoyon bo'ladi.

2. Kollektiv "yuzi". Kollektiv "yuzi" shaxs "yuzi"ning davomi va kengayishi bo'lsa-da, shaxs "yuzi"dan aniq farq qiladi. Kollektiv shaxslar birlashgan yaxlit birlik bo'lib, jamiyat poydevorining muhim bo'g'inidir. Kollektivning tasviri – bu ushbu kollektivning barcha a'zolari tomonidan birlashtirilgan tashqi tasviri. Kollektivning mavjudligi shaklga ega bo'lib, qon munosabatlariga tufayli yuzaga kelgan oila, oilaviy jamoa va boshqalar bo'lishi yoki bir xil maqsad va psixologik ehtiyojlar uchun turli xil manfaatlar jamoalari bo'lishi mumkin. Masalan, ta'lim olish maqsadida shakllangan guruh, bir xil jamoat farovonligi uchun tuzilgan g'amxo'rlik jamoalari, bir xil foyda olish maqsadida tashkil etilgan tadbirkor jamoalari va boshqalar. Kollektiv mavjudligining kaliti shundaki, ko'pchilik o'zaro hamkorlik qilib jamoaviy tartibni saqlaydi, jamoa tasvirini shakllantiradi, jamoaviy manfaatlar haqida qayg'uradi va jamoaviy intizomga rioya qiladi. Ko'p hollarda, shaxs manfaati kollektivniki bilan bir xil bo'lishi, xatti-harakatlari va so'zлari ham kollektiv manfaatiga to'g'ri kelishi lozim. Binobarin, tashqi olamning jamoaviy tasvirga qanday baho berishi nafaqat jamoaviy "yuz"ni, balki jamoadagi shaxs "yuzi"ni ham o'z ichiga oladi. Shaxs jamoa nomidan ijtimoiy faoliyat bilan shug'ullanganida barcha so'z va amallari jamoaviy "yuz"ni saqlashga harakat qilishi kerak. Bu shaxs "yuzi"ni

shakllantirish jarayonida shaxs faqat o'z tasviri uchun javobgar bo'lishidan farq qiladi.

3. Davlat "yuzi". Davlat "yuzi" siyosiy tartib qurilishi darajasida shaxsiy va jamoaviy "yuz"ning jamlangan ifodasidir. Mamlakat son-sanoqsiz shaxslar va jamoalardan iborat bo'lib, u xalqaro darajaga ko'tarilgan jamoadir. Yurt "yuzi" yurt tasvirining egizak ukasidir. Davlat tasviri boy ma'noga ega bo'lgan keng qamrovli madaniy timsoldir. U nafaqat davlat ichidagi fuqarolarning o'z yurtining tarixi, madaniyati, iqtisodiy rivojlanishi, ijtimoiy holati va boshqalar haqidagi bilimidir, balki chet el fuqarolarining hukumat obro'si, ijtimoiy ta'minoti, iqtisodiy qudrati, tarixiy merosi, madaniyati, aholi va boshqa jihatlariga bo'lgan kuzatuvi va bahosidir. Davlat ta'sirini ichki va xalqaro tasvirga bo'lish mumkin bo'lib, asosan mamlakatning har tomonlama davlat kuchi va ta'siriga bog'liq bo'ladi va ikkalasi ham davlat "yuzi"ning tisolি hisoblanadi.

Davlat "yuzi"ni shakllantirish va saqlab qolishda Xitoyning korruptsiyaga qarshi tizimini takomillashtirish siyosatini amalga oshirishni eslab o'tish kerak. Xitoy Kommunistik partiyasining 18-Milliy Kongressidan so'ng, Xitoyda asosiy harakatlantiruvchi kuch sifatida Xitoy Kommunistik partiyasi tomonidan korruptsiyaga qarshi kurash faol ravishda ilgari surildi. Keyingi besh yil ichida misli ko'rilmagan kuch va qat'iyat bilan olib borilgan ushbu korruptsiyaga qarshi kurash kampaniyasi o'zining samarali natijalarini berib, tobora standartlashtirilgan, institutsionallashgan va qonun bilan tartibga solinayotgani korruptsiyaga qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish va rivojlanirishdan dalolat beradi. Dunyoning barcha mamlakatlari bu tajribaga katta e'tibor qaratib, ba'zi davlatlar Xitoya "tajriba olish" uchun professional guruhlarni yubordi va korruptsiyaga qarshi hamkorlikni mustahkamlash uchun hamkorlikka umid qilmoqda. Korruptsiyaga qarshi kurashning ushbu mashaqqatli ishi Xitoya milliy tasvirini o'zgartirishga imkon berdi, mamlakat ichkarisida va chet elda dahshatli korruptsiyadan ta'sirlangan "yuzi"ni qayta tikladi va yangi davrda va yangi vaziyatda davlat tasviriga yangi ko'rinish olib keldi.

FOYDALANGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Нагибина, И.Г. Формирование дискурсивно-коммуникативной парадигмы в китайском языкоznании: от теории к социальной практике. Diss. ... candidate of Philology. Красноярск, С. 2017.
2. Qi Xiaoying. Face: A Chinese concept in a global sociology // Journal of Sociology. Vol. 47. No. 3. 2011.
3. 马庆林. 中国面子文化与法律语言：“博弈—互补”范式. 博士学位论文. 陕西师范大学. 2018.
4. 王琳. 谈中国人的面子. 硕士学位论文. 黑龙江大学. 2011.
5. <http://news.cctv.com/2017/05/05/ARTIfdEkEQ9QqxZtUNMMpodox170505.shtml>